

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

АРХЕОЛОГИЯ ВА БУХОРО ТАРИХИ КАФЕДРАСИ

## БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ

(Энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

*мавзусида Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция*

## МАТЕРИАЛАРИ

2024 йил 10 май

Бухоро – 2024

Илмий-амалий анжуман Бухоро тарихи, манбашунослиги, тарихшунослиги, археологияси, этнографияси, нумизматикаси, шаҳарсозлиги, маданият ва санъати соҳаларида амалга оширилаётган энг янги илмий натижаларни илмий жамоатчиликка етказиш, фан ва таълимнинг узвий боғлиқлигини кучайтириш мақсадида Бухоро давлат университетида **2024 йил 10 май** куни **“БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ” (ЭНГ ҚАДИМГИ ЗАМОНЛАРДАН ҲОЗИРГАЧА)** мавзусидаги Республикао микёсида илмий-амалий конференция белгиланган тадбирларни амалга ошириш мақсадида ўтказилди.

Ушбу илмий тўплам кенг илмий жамоатчилик, Бухоро тарихи билан қизиқувчилар, тарихчилар, магистрантлар ва талаба ёшларга мўлжалланган

### **Масъул муҳаррир:**

**БухДУ профессори, тарих фанлари доктори**

**Ҳ.Ҳ.Тўраев**

### **Таҳрир хайъати ва аъзолари:**

О.Х.Ҳамидов - Бухоро давлат университети ректори, и.ф.д., профессор  
Т.Х.Расулов - илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, ф.ф.д., профессор  
А.А.Болтаев - Тарих в юридик факультети декани, ф.ф.д., доцент  
Ф.У.Темиров - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири, т.ф.ф.д (PhD) доцент  
С.И.Инояттов – Бухоро давлат университети профессори, т.ф.д.  
М.И.Ниязова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н  
М.Б.Қурбонова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н  
Ф.Ҳ.Бобожонова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н  
А.Ҳ.Болтаев - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.ф.д (PhD)  
Б.Б.Болтаев - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси, т.ф.ф.д (PhD)  
О.И.Ражабов - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси,  
Ш.Ў.Носиров – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси,

### **Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар:**

**Темиров Ф.У.** – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири  
**Умаров Б.Б.** – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси  
**Носиров Ш.Ў**– Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси

Мазкур тўплам Бухоро давлат университети Илмий Кенгашининг 2024 йил 4 майдаги  
9 – сонли қарори билан нашрга тавсия қилинган.

*Илмий-амалий анжуман материалларида ёритилган тарихий жараёнлар,  
маълумотлар, чиқарилган хулосалар, манба ва адабиётлар учун муаллифларнинг  
ўзлари масъул ва жавобгардир*

fanga yanglik kiritishni, yangi maktablar ochishni, yoshlarni ilmiroq qilishga intilganlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy ta’kidlaganidek, “Har bir mamlakatda islohot va madaniyat asbobig‘a tasavvul (vosita) va tashabbus etmoqlik harakati u mamlakatning yoshlari tarafidan zuhur eta boshlagani kabi, bizning Turkistonda ham madaniyat eshigi manzalasida bo‘lgan maktabi ibtidoiy ila intiboh va islohot jarchisi bo‘lgan milliy matbuot qayratlu yoshlarning harakati maorif parvaronlarini soyasida vujudga keldi”. Shu sababli ham jadid mutafakkirlari sog‘lom farzandni tarbiyalash uni ilmi, ma’rifatli qilish uchun kelajakda xalqini yuksaltiradigan farzand bo‘lib yetishishlari uchun avvalo ota onalarni ilm ma’rifatli bo‘lishga chorlaganlar. Bu xususidan Munavvarqori Abdurashidxonov bolaning ta’lim-tarbiyasida ota onalarning ahamiyati yuqori o‘rin tutishini takidlaganlar. Bu uchun esa ota onalar avvalo farzandlarini maktab va madralarda ta’lim olish uchun tayyorlab berishlari kerak bo‘lgan. Shundan so‘ngina, yoshlar davlat oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olishlarini uqtirganlar. Shunday qilib, bu sa’yi harakatlarning asosi bo‘lgan jadidlik faoliyatining tepasida Maxmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, So‘fizoda, Xamza, Sadridin Ayniy, Tavallo singari xalqimizning o‘nlab fidoiy farzandlari, shoiru adiblari, davlat va siyosat arboblari turgan edilar. Ular xalqni marifatlashtirish uchun Turkiston o‘lkasida ko‘plab ishlarni olib borganlar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Turkiston o‘lkasida chuqur ildiz otgan bu jadidchilik harakati nafaqat yoshlarni ilm-fanga qiziqтира olganlar balki, ular yoshlarni siyosiy-madaniy hayotga bo‘lgan qiziqishlarini oshira olganlar. Kelajakda yoshlar har sohada qishloq xo‘jalik sanoatida, ilm-fanda bundan tashqari ishlab chiqarish jarayonida ham jahot iqtisodiyotiga teng kela oladigan yoshlar bo‘lishga chorlaganlar. Shu tufayli ham yoshlar manfaatini himoya qilish, ularning jamiyat va davlatda munosib o‘rin egallashlari uchun tegishli imkoniyatlarni yaratish borasidagi jadidlarning fikrlari bugungi Yangi O‘zbekistonda namoyon bo‘lib turmoqda. Aynan bu kabi millatning yulduzlari bugungi zamonaviy avlod uchun bitmas-tuganmas ibrat maktabi bo‘lib qoldi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo‘lida yanada hamjihat bo‘lib, qat’iyat bilan harakat qilaylik. -T.:O‘zbekiston, 2017.
2. Долимов У. Жадид педагогикаси. -Т. 2007
3. Н. О‘rmonov. Yangi O‘zbekiston yoshlarining shakllanishida jadid ma’rifatparvarlari ilmiy me’rosining ahamiyati. International conference on learning and teacher. 2022
4. Авлоний А. Танланган асарлар. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ. Т.: Маънавият. 2006 й.
5. Махмудхўжа Бехбудий Танланган асарлар. Т.: Маънавият. 2006 й.

### **ME’MORCHILIK SAN’ATIDAGI O’ZIGA XOS XUSUSIYATLAR (IX-XII ASRLARDA)**

**D.Elova-t.f.f.d, (PhD)**  
**Abdullayeva Nasiba**  
**4 kurs talabasi**

IX-XII asrlar O‘rta Osiyoda birinchi Uyg‘onish bo‘lgan davr hisoblanadi . Ushbu davrda O‘rta osiyo ilm-fan , san‘at va madaniyat sohalarida ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritdi . Shu jumladan me‘morchilikda ham . Ushbu davrda qurilgan me‘moriy obidalar bugungi kunda ham G‘arbning e‘tirofida qayta-qayta tilga olinadi . Shunday diqqatga sazovor bo‘lgan inshootlar haqida so‘z borar ekan , men ushbu binolarning me‘moriy xususiyatlari haqida gapirmoqchiman.


Abu Nasr Forobiy shunday degan ekan “Juda ko‘p g‘aroyib handasaviy uslublar mavjud . Ulardan biri riyosa al-bino san‘atidir” . Bundan ko‘rinib turibdiki , me‘morchilik faqatgina qurilish sohasi bo‘libgina qolmay , balki san‘at sohasi hamdir . Chunki insonlar tasviriy san‘at namunalari va musiqiy asarlardan qanday zavq olishsa me‘moriy inshootlardan shunday zavq

oladilar . Bunda me'morchilikning insonni zavqlantiradigan elementlarining ahamiyati katta . Bularga quyidagilar kiradi :

- Rang va bo'yoqlar jilosi
- Mahobatlilik , ya'ni balandligi
- Yozuv , naqshlar va h.

Shulardan birinchisiga to'xtalamiz . Ma'lumki ranglar inson ruhiyatida muhim ahamiyatga ega . Ranglardan me'morchilikda mohirona foydalanish esa ushbu binolarning o'ziga xosligini yaratib beradi . Masalan ko'k-moviy ranglar osmonning ramzi bo'lib , e'tibor bergan bo'lsangiz masjidlarning gumbazi aynan shu rangda bo'ladi . "X-XI asrlarda qurilgan Oq Ostona bobo maqbarasida qo'llanilgan ranglar va bezaklar orqali uning "tili"ni ochishadi" deyiladi arxitektura kitobida . Yoki aynan shu kitobda shunday deyilgan: "Yashil rang bu islomiy boqiy gullari rangi va ramzidir" [1]

Keyingi xususiyatga to'xtalamiz , ya'ni yozuv va naqshlar . Buning uchun Oq Ostona bobo maqbarasi bezaklariga e'tibor beramiz . Maqbaraning g'arbiy devoir tashqarasida 2 ta tang'asimon g'ishtin bezaklar mavjud bo'lib , ular yeti burchakli yulduzlar shakliga ega . Har ikkala bezakning markazida o'rama shaklli o'simlik tasvirlangan . Ularning gardishiga esa 7ta to'liqinsimon nurlil aylana – Quyosh ramzi ishlangan bo'lib , ular ham atrofidan 7qirrali yulduz bilan o'ralgan . Chap tomondagi yulduzsimon bezak atrofi yana 7ta to'liqinsimon burklar bilan o'rab chiqilgan . Ushbu bezaklarni tadqiq qilgan olimlarning fikricha , 7qirrali yulduz taraqqiyot , ruhiy tartibot va koinot rivojlanishining ramzidir . Bezaklarning markazidagi spiralsimon kompozitsiya esa o'simlik , hayvonot dunyosi va insoniyat hayotini aks ettirgan "Hayot spirali (davomiyligi)" , suv girdoblari va toshqinlari , ba'zi bir o'simliklarning rivojlanishi , ilonlar va aylana shoxlar bilan bog'liq bo'lgan hayot kuchining ramzidir [2] .



1-rasm . Suxondaryo . Oq Ostona bobo maqbarasi tarziga ishlangan ramziy bezaklar(X-XI asrlar)

Ushbu xususiyat borasida Raboti Malikka e'tiborimizni qaratamiz . Ma'lumki , Raboti Malik o'rta asrlardagi karvonsaroy bo'lib , Navoiy viloyatida joylashgan . Ushbu karvonsaroy savdogar va yo'lovchilar uchun o'sha davrda mehmonxona vazifasini bajargan . Raboti Malikda olib borilgan izlanishlar natijasida ushbu obyekt me'morchilik uslublari vabezaklariga mos ravishda "Shohlar qal'asi"[3] degan nom berilgan . Yana bir karvonsaroy Belayli (Xorazmda)ham o'zining me'morchiligi bilan muhim ahamiyatga ega . Uning peshtoqida sher tasviri mavjud . Hammamizga ma'lumki , savdogarlar faqatgina savdo-sotiq bilan shug'ulanibgina qolmay , ma'lumotlar almashinishida ham muhim ahamiyatga ega (Marko Polo misolida) . Sher bu hukmdorlik , qudrat ramzi . Ushbu tasvir orqali Xorazm hukmdorlari o'z qudratlarini namoyon etib turishganday .

Albatta keying xususiyat mahobatlilik , ya'ni qanchalik balandligi . IX-XII asrlardagi baland inshootlar dedikmi , darrov Minorai Kalon ko'z oldimizga keladi . Ushbu minora usta Baqo aytganiday , qulamasdan hozirgacha qad ko'tarib turibdi . Xalq orasida minoraning

balandligi borasida hammamizga ma'lum shunday hikoya mavjud : “Chingizxon uning eng yuqori nuqtasiga boqqanda , bosh kiyimi tushib ketadi , shundan so'ng “minora ilohiy ekan , men hech kimni oldida tiz cho'kmaganman . Bu bino istisno” deb minorani buzdirmagan ekan” [4] . To'g'ri bu bir afsona , haqiqatdan yiroqdir . Ammo uning balandligi ushbu afsonalarga sababchi bo'lgan . Shuningdek gap Minorai Kalon haqida so'z borar ekan , uning dekoriga ham e'tiborimizni qarataylik . Islom me'morchiligida jonli tasvirlar mumkin bo'lmaganligi bois xattotlik , yozuvlardan bezatishda foydalanishadi . Minorai Kalonda xuddi shunday tartibda yunus surasining 107-109 oyatlari yozilgan. [5]

Xulosa qiladigan bo'lsak , O'rta Osiyo me'morchiligi IX-XII asrlarda islom dini asosida dekor qilingan . Shu bois ushbu davr me'morchiligida har inshootda islomiy naqsh , bezak va ranglarga duch kelamiz . Shuningdek ushbu davrdagi davlatlar o'z qudratini namoyon etishda me'morchilikka alohida ahamiyat qaratgan , Qoraxoniylar singari .

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- [1] . Uralov A. “Arxitektura shakllarini uyg'unlashtirish va bezash” darslik , Toshkent-2015 , B-187.
- [2] . Uralov A. “Arxitektura shakllarini uyg'unlashtirish va bezash” darslik , Toshkent- 2015 , B-188.
- [3] . <https://telegra.ph/RABOTI-MALIK-KARVONSAROYI-10-28>
- [4] . <https://m.aniiq.uz/uz/yangiliklar/hatto-chingizxon-ham-vayron-qila-olmagan-minorai-kalon>
- [5] . Bobojonova F . Buxoro me'moriy obidalari tarixi fanidan , o'quv-metodik qo'llanma , B-“Durdon” , 2022 , B-40 , 41

**ABU NASR FAROBIYNING ILMIIY MEROSI VA UNING JAHON TARIXIDA  
TUTGAN O'RNI**

**Nilufar Jumayeva Ahmadovna**

**BuxDU Buxoro tarixi kafedrasi kata o'qtuvchisi**

**Shahlo Ortiqova Salim qizi**

**BuxDU 4-kurs talabasi**

Abu Nasr Farobiy – o'rta asr sharqining mashhur mutafakkiri, qadimgi yunon falsafasining Sharqdagi eng yirik davomchisi va targ'ibotchisidir. U Sirdaryo bo'yidagi O'tror (Forob) shahrida 873 yilda tug'ilib, Shosh (Toshkent), Buxoro shaharlarida o'qidi, so'ng xalifligining markazi Bag'dod shahriga borib, u yerda ko'p yil istiqomat qildi. Yunon faylasuflarining asarlarini mutolaa qilish, turli tillarni o'rganish bilan shug'ullandi. Umrining so'nggi yillarida Damashqda yashadi. 950 yilda vafot etdi. U turli sohalarga oid ilmiy asarlar qoldirdi. U o'z davrining faylasufi, musiqachisi, shoiri, qomusiy olimi sifatida shuhrat qozondi. U “Aql haqidagi risola” “Falsafadan oldin nimani o'rganish kerak”, “Falsafa manbalari”, “Masalalar manbalari” kabi 160 dan ortiq risolalar yaratdi. Yaqin va O'rta Sharqda «Ikkinchi muallim» deb nom qozongan Markaziy Osiyolik mashhur olim Abu Nasr al-Farobiyning mantiq ilmiga qo'shgan hissasi beqiyosdir. Farobiy hali hech bir mutafakkir uddalay olmagan vazifani, ya'ni Arastuning va umuman qadimgi grek mantig'ini keng tinglovchilar o'rganishi uchun eng oddiy, tushunarli vosita va uslublarini ishlab chiqishga muvaffaq bo'lgan. Mantiq tarixchilarining ta'kidlashicha, Farobiy bu tavsiyalari bilan Arastuning mantig'iga o'zgacha fayz kiritib, uning kitobxonlar orasidagi mavqeini yanada ko'tarilishiga erishdi.

Farobiy o'zining asarlarida mantiq ilmi, uning predmeti, tuzilishi, vazifalari, fikrlash jarayonining bosqich va shakllari, mantiqiy qonunqoidalari, usul hamda amallari haqida keng ma'lumotlar bergan.

Mutafakkirning ijodiy merosini o'rganish borasida olimlar samarali ijod qilmoqdalar. Farobiyning kitoblarini ro'yxatini tuzish va undagi ijtimoiy-falsafiy, siyosiy fikrlarni o'rganish borasida Bayxaki, Al-Nadima, ibn Usaybi, Dextuzo, Umar Tarrux, Xorten, Diteritsi, Shteynshneyder, Brokkel'man, Axmad Atin, M.M.Xayrullaev va boshqalar samarali mehnat qilganlar. Farobiyning asarlari Leningrad, Moskva, Toshkent, Dushanbe,

**Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача)**

Nosirova S.S. Nasimov D.B. AJDODLAR MEROSI - MATO HUNARMANDCHILIK NA'MUNALARINING ASRAB AVAYLASHNING DOLZARBLIGI. ....	504
Kazakova Marifat Dexkanovna. OLIY TA'LIM TIZIMI RIVOJIDA BUXOROLIK AYOL OLIMALARNING O'RNI (BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI MISOLIDA) .....	508
Qurbonova Dilnora Nuriddin qizi. TARIX FANINI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARASI .....	510
Nosirova Yulduz O'ktam qizi. JADID MA'RIFATPARVARLARINING ILMIY-PEDAGOGIK QARASHLARI - ZAMONAVIY O'QUVCHILARNING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARINI TARBIYALASH VOSITASI.....	511
D.Elova, Abdullayeva N. ME'MORCHILIK SAN'ATIDAGI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR (IX-XII ASRLARDA).....	513
Nilufar Jumayeva Ahmadovna, Shahlo Ortiqova Salim qizi. ABU NASR FAROBIYNING ILMIY MEROSI VA UNING JAHON TARIXIDA TUTGAN O'RNI.....	515
Shuxrat Yodgorovich Qudratov, Rashidov Xurshid. O'ZBEKISTON-TURKIYA: TARIXAN TARKIB TOPGAN ALOQALAR.....	517
Ahmadov Ahmadjon Asror o'g'li, Raxmonov Zafar Zoir o'g'li. QADIMGI BAQTRIYA DAVLATCHILIGI XUSUSIDA AYRIM MASALALAR.....	519
Sobirov Umid Baxtiyorovich. O'ZBEKISTONDA BUXORO TARIXINI O'RGANISHNING DOLZARB MASALALARI .....	521
منش ك اظمى سعة یده سامان یان ف رهذگی پ ای تخت عنوان به به خاران قش به رر سی .....	523
Меликов Н.А. САМАРҚАНД ВОҲАСИНИНГ АСОСИЙ СУВ ТАРМОҚЛАРИ ВА СУҒОРИШ ИНШОАТЛАРИ.....	531